



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> May, 2025

## **MAHALIY AHOLI O'RTASIDA IMMUNOPROFILAKTIKA VA IMMUNOTERAPIYA O'TKAZISHNING ASOSIY VAZIFALARI**

Bobojonova Gulnoza Ubaydullayevna

1-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
mutaxassislik fan o'qituvchi

Xusenova Maxbuba Kadirovna

1-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
mutaxassislik fan o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Immunoprofilaktika (immunitet va profilaktika) — amaliy immunologiyaning bir bo'limi. Immunitet hosil qilish uchun organizmga vaksina, immun zardob, gamma-globulin kabi immunologik preparatlar yuborib, infektion kasalliklarning oldini olish. Poliomiyelit, difteriya, qoqshol, qizamiq, sil, ichterlama, virusli A va B hepatit kabi infektion kasalliklarga qarshi emlash. Odamning virus infeksiyasiga qarshi vaksina topish oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

**Kalit So'zlar:** Immunitet, profilaktika, vaksina, infeksiya, virus, emlash.

### **Аннотация**

Иммунопрофилактика (иммунитет и профилактика) — раздел прикладной иммунологии. Профилактика инфекционных заболеваний путем введения в организм иммунологических препаратов, таких как вакцины, иммунная сыворотка и гамма-глобулин, для формирования иммунитета. Вакцинация против инфекционных заболеваний, таких как полиомиелит, дифтерия, столбняк, корь, туберкулез, брюшной тиф, вирусные гепатиты А и В. Поиск вакцины против вирусных инфекций человека является одной из важных задач, стоящих перед И.

**Ключевые Слова:** Иммунитет, профилактика, вакцина, инфекция, вирус, вакцинация.



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> May, 2025

## **Annotation**

Immunoprophylaxis (immunity and prevention) is a branch of applied immunology. Prevention of infectious diseases by administering immunological preparations such as vaccines, immune serum, gamma-globulin to the body to create immunity. Vaccination against infectious diseases such as poliomyelitis, diphtheria, tetanus, measles, tuberculosis, typhoid, viral hepatitis A and B. Finding a vaccine against human viral infections is one of the important tasks facing I.

**Keywords:** Immunity, prevention, vaccine, infection, virus, vaccination.

Immunitet – bu organizmning kasallik qo’zg’atuvchi organizmlardan o’zini himoya qilish qobiliyati. Har kuni tanamiz bir nechta patogenlar bilan aloqa qiladi, ammo faqat bir nechtasi kasallikka olib keladi. Buning sababi shundaki, bizning tanamiz ushbu patogenlarga qarshi antikorlarni chiqarish qobiliyatiga ega va tanani kasalliklardan himoya qiladi. Ushbu himoya mexanizmi immunitet deb ataladi.

Immunitetning ikkita asosiy turi mavjud:

- 1.Tug’ma immunitet yoki tabiiy yoki o’ziga xos bo’lmagan immunitet.
- 2.Olingan immunitet yoki adaptiv immunitet.

Ushbu turdagи immunitet organizmda tug’ilishdan mavjud. Bu patogen hujum qilganda darhol faollashadi. Tug’ma immunitet tanadan begona zarralarni saqlaydigan ma’lum to’siqlar va himoya mexanizmlarini o’z ichiga oladi. Tug’ma immunitet tananing himoya tizimini anglatadi. Bu immunitet bizga tabiiy qarshilik komponentlarini, shu jumladan tuprik fermentlari, tabiiy qotil hujayralar, buzilmagan teri va neytrofillar va boshqalarni ta’minlash orqali yordam beradi.Bu uzoq muddatli immunitet bo’lib, unda bizning tanamiz o’z-o’zidan antikorlarni ishlab chiqaradi. Bizning tanamiz patogen mikroorganizmlarning kirib kelishini oldini olish uchun bir nechta tabiiy to’siqlarga ega.

**Immunoterapiya** (immunitet... va terapiya) — bemor organizmiga vaksinalar, shifobaxsh zardoblar (biopreparatlar) yuborib, infektion kasalliklarni davolash yoki kasallikni davolash maqsadida insonning immunitet tizimini manipulyatsiya qilish. Bunga faol va passiv immunizatsiya va transplantatsiya rad etilishining oldini olish uchun immunosuppressiv davolash kiradi. Bunda organizmga



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> May, 2025

kiritilgan vaksina bemorning uz kuchlarini infeksiyaga qarshi kurashga safarbar qilishiga turtki beradi. Shifobaxsh zardoblar bilan davolashda organizm muayyan infektion kasallik mikrobi yoki shu mikrob toksinlaridan himoya qiladigan immun jismlar (antitelolar)ni tayyorgina oladi. Bunday holda immunitet 1 — 1,5 oygina saqlanib turadi. Immunitetga, asosan, o'tkir infektion kasalliklar (difteriya, kuydirgi va hokazo)da seroterapiya, vaksinoterapiya (brutsellyoz, furunkulyoz kabi kasalliklar uzoq, chuzilganda) va b. kiradi. Vaksinoterapiyada avtovaksina va anatoksindan ham foydalaniлади. Keyingi yillarda uzoq vaqtgacha tuzalmaydigan kasalliklarni, mas, o'smalarni nospetsifik silga qarshi vaksina (BSJ) bilan davolash ham Immunitetga kiritildi. Ilmiy nuqtayi nazardan “immunitetni oshirish” degan narsa yo‘q. Darhaqiqat, immunitet doimiy ravishda mustahkamlanishi bizga kerak emas. Gap shundaki, u mikroblarga reaksiyaga kirishadigan ko‘plab turdagи hujayralarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tug‘ma immunitet reaksiyasi virus organizmning teri, nafas olish yo‘llari va shilliq pardalar kabi himoya vositalari orqali kirib, hujumga tayyor bo‘lganda paydo bo‘ladi. Agar immunitet reaksiyalari biz xohlagan vaqtida “ko‘tarilishi” mumkin bo‘lsa, organizm doimiy hujum holatida bo‘lar edi va biz doimo o‘zimizni yomon his qila boshlardik. Misol uchun, astma, ekzema, oziq-ovqat allergiyalari kabi muammolar “zaif” emas, balki haddan tashqari faol immunitet tizimining belgilaridir. Garchi ko‘plab mahsulotlar umumiylar marketing so‘ziga aylangan immunitetni “ko‘taradi” deb da’vo qilinsa-da, bu tushuncha to‘laqonli ilmiy tasdiqlanmagan. Immunitetimiz oq qon tanachalari va leykotsitlar kabi hujayralardan iborat. Ayni paytda olimlar tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun hujayralarning qaysi birikmasi optimal miqdor ekanligini ham bilishmaydi.

Keyingi gal ma’lum bir vitamin immunitet tizimini “mustahkamlash”ga yordam berishini o‘qiganda, bilingki, u haqiqatan ham uni muvozanatda saqlashga yordam beradi. Masalan, C vitamini tug‘ma va moslashuvchan immunitet tizimining hujayra funksiyalarini rag‘batlantirish orqali uni qo‘llab-quvvatlashi ma’lum. Boshqacha qilib aytganda, bunday dorilarning vazifasi kuchaytirish emas, balki muvozanatni topishdan iborat. Olimlar turmush tarzini tanlash va kuchli immunitet tizimi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni o‘rganmoqda. Biz hozir bilgan narsa shundaki, sog‘lom turmush umumiylar salomatlik uchun foydalidir va emlashlar mavjud bo‘lgan



# E CONF SERIES



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

**Hosted online from Jakarta, Indonesia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

30<sup>th</sup> May, 2025

eng yaxshi qo'shimcha hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat qo'shimchalari faqat sizda ozuqaviy moddalar etishmasligi bo'lsa foydali bo'ladi. Sog'lom parhezga qo'shimcha ravishda qo'shimchalarni qabul qilish immunitet tizimingizga ko'p qo'shmaydi.

## **Foydalilanilgan Adabiyotlar**

1. Алимов А.В., Юсупалиева Г.А. Перспективы применения модульной технологии обучения в медицинском образовании //Ўзбекистон тиббиёт журнали.-2008.-№5.-С.99-103.
2. Асадов Д.А., Умарова Т. Ю. Перемены в развитии сестринского дела //Педиатрия. –1997. -№3. –С. 101-104.
3. Атаканов Ш.Э. Подготовка сестринских кадров //Ҳамшира.-2006.-№1.-С.3-4.
4. Бахтина И.С. Новые направления в совершенствовании непрерывного медицинского образования //Сестринское дело.-2006.-№4.-С.11-16.
5. Бражников А.Ю., Камынина Н.Н. К вопросу о подготовке в России специалистов с высшим сестринским образованием//Медицинская сестра.-2010.-№3.-С.12-15.